



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKAS
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2018-yil. 1-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING


SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

2018- yil — «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»



Алишер Навоий номидаги Тошкент
давлат ўзбек тили ва адабиёти универ-
ситетининг янги биноси



Ushbu sonda



Dolzarb mavzu

«Direktorlar kitob-
xonlik imtihonidan
o'tkazilsa...»

7- bet



Darslikka tuzatish

Darslik va badiiy
matn muammosi

12- bet



Mahorat darsi

Badiiy asar tahlili
jarayonida kompetent-
likni shakllantirish

20- bet



Abituriyentga yordam

Terminni to'g'ri tushunish -
muvaffaqiyat garovi

45- bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2014-yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan qayta
ro'yxatga olingan.

2018-yil. 1-son.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir:

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor DONIYOROV
Mamatqul JO'RAYEV
Shahnoza JO'RAYEVA
Islom ZOKIROV
Ulug'bek INOYATOV
Abduhamid MUXTOROV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nizomiddin MAHMUDOV
Hikmatilla RASHIDOV
Abdurahim NOSIROV
Nargiza RAHMONQULOVA
Sirojiddin SAYYID

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Lutfullo JO'RAYEV
Ehson TURDIQULOV
Valijon QODIROV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Shahnoza JO'RAYEVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Telefon: (0 371) 244-04-18,

244-04-15, 244-20-63, 244-26-89.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jumaldan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va
adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jumalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning
tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan
fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilin-
maydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 26.01.2018-yilda topshiril-
di. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi
60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times»
garniturasini. 10, 11 kegl. «KOLORPAK» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Yashnobod tum., Elbek 8.
Buyurtma № 192. Adadi 13000 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA	
MUHARRIR MINBARI	
Bahodir Jovliyev. Hamkorligimiz — muammolar yechimiga kalit	3
DOLZARB MAVZU	
Naim Karimov. Milliy taraqqiyot va ta'lim	5
Nigora O'rolova. «Direktorlar kitobxonlik imtihonidan o'tkazilsa...»	7
DIQQATI YANGI RUKN: DARSLIKKA TUZATISH	
Shavkat Nishonov. Darslik va badiiy matn muammosi	12
DARS — MUQADDAS	
Roziya Panoyeva. Har bir so'zni bilib ayt	14
Zilola Ibrohimova. «Tafakkur birla qilmish odamizot...»	16
Komila Rajabova. «Oz-oz o'rganib dono bo'lur...»	18
DIQQATI YANGI RUKN: MAHORAT DARS	
Sharofat Toshmirmayeva. Badiiy asar tahlili jarayonida kompetentlikni shakllantirish	20
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Saida Majidova. Nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish usullari	23
Shahnoza Xo'jayeva. Kommunikativ vaziyat va mashqlar	25
Shahlo Rahimova. Pedagogik texnologiya — o'qituvchi va o'quvchining	26
Munira Xudoyorova. Lutfiy hayoti va ijodini o'rgatish tajribasidan	28
Feruza Ikomxonova. Kommunikativ-kognitiv metod va korrekktiv kurs	30
TEACHING ENGLISH	
The success of Low-Cost Airlines	31
When Marketing Goes Wrong	32
ADABIY TAQVIM	
Umarali Normatov. Benazir badiiy obida	33
Ma'suma Ahmedova. Ko'nglini kitobga solgan yozuvchi	35
METODIK TAVSIYA	
Qozoqboy Yo'ldosh, Maqsuda Sariboyeva. Adabiyot jo'n hayotiy	37
realistik intihosidan boshlanadi	
TAHLIL	
Burobiya Rajabova. Navoiy ijodida ta'lim-tarbiya masalalari	41
Nasiba Bozorova. «Sen ham sog'ing'ansen meni mehr-u vafu bila...»	43
ABITURIYENTGA YORDAM	
Yorqinjon Odilov. Terminni to'g'ri tushunish — muvaffaqiyat garovi	45
TADQIQOTLAR	
Munavvara Qurbonova. Bolalar nutqida mustaqil so'zlar presuppozitsiyasi	47
ПАМЯТНЫЕ ДАТЫ	
Серик Пирматов. По милой Родине скорбит извечно человек	1
Саодат Камилова. Правитель и поэт	2
Юлия Морозова. Тема любви в поэзии Алишера Навои	4
АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ	
Дилноз Рузиева. Аксакал педагогической науки Республики Узбекистана	6
АВТОРСКОЕ СЛОВО	
Юлия Мусурманова. Мастерство А.П.Чехова в рассказе «Хамелеон»	8
МЕТОДИКА. ОПЫТ	
Дилбар Байматова. М.М.Пришвин «Журка»	12
Исмигул Файзиева. М.Е.Салтыков-Щедрин «Повесть о том, как один мужик	13
двух генералов прокормил»	
Лариса Ким. «Мы умеем жить. Помни это. Будь человеком!»	16
ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ЗАМЕТКИ	
Умида Курбанбаева. Смысловое значение пословичного текста	18
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Рубен Назарьян. «Человек с курчавой шевелюрой и в тюбетейке...»	19
Мастура Эгамова. «Вокруг нее всегда витает тайна...»	20
ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ	
Илхом Чориев. Проектирование внедрения синергетического подхода на курсах	22
повышения квалификации	
Мастура Нишанова. Некоторые вопросы андрагогики в обучении иностранному языку	23
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАТЕЛЯ	
Дилором Фаттахова. Обучение средствам речевой выразительности	25
узбекского языка	
Шахноза Махкамова. Две формы речевой функции как основное	26
средство общения	
Культура речи и общения	
Гулчебра Давлятова. Обучение основам риторики	28
в учебных учреждениях	
Изучаем иностранные языки	
Екатерина Аминова. Типы ударений и правила их постановки	29
в английском языке	
Инновации	
Агата Осипова. Электронный деканат	30

Munira XUDOYOROVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
o'zbek adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

LUTFIY HAYOTI VA IJODINI O'RGATISH TAJRIBASIDAN

Bugungi globallashuv davrida farzandlarimizni har qanday yot g'oyalardan asrab-avaylashning ishonchli qurollaridan biri — adabiy ta'limdir. Bugungi avlod qalbida Ona Vatanga mehr-muhabbat uyg'otish, uni har qanday sharoitda asrab-avaylash bevosita adabiyot va uning mumtoz ijodkorlari yaratgan durdona asarlar orqali singdiriladi. Mumtoz adabiyot namoyandalari hayoti va ijodi namunalarini yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitishning zamon talabi ekanligi ham aynan ana shunda.

Mumtoz adabiyotimizning nozik sir-asrorlarini, ijodkorlarining o'ziga xosliklarini ta'lim shakllarining zamonaviy usul va vositalari orqali o'qitish umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilari tomonidan yaratilayotgan o'quv qo'llanmalari, dars ishlanmalarida o'z ifodasini sezilarli darajada topdi. Ammo bugun bo'lajak o'qituvchilar tayyorlanayotgan oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan nazariy va amaliy darslarda hamon an'anaviy ta'limning ustun bo'lib kelayotganligi hech kimga sir emas. Oliy ta'lim tizimida bu kabi dolzarb muammoning yechimi ertaga maktablarimizda faoliyatini boshlaydigan yangicha tafakkur, adabiy ta'limning zamonaviy uslublari bilan qurollangan adabiyot o'qituvchisining shakllanishiga zamin tayyorlaydi.

Lutfiy hayoti va ijodini o'qitishning innovatsion texnologiyasini yaratayotganimizda ana shu masalaga alohida e'tiborni qaratdik.

Zamonaviy pedagogik texnologiya — bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, o'quvchining ehtiyojidan va texnik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Biz ko'zlagan kafolatlangan natija aynan tashkilashtirilayotgan darsda qo'llanilayotgan shakl, usul va vositalarga bog'liq. Lutfiy hayoti va ijodi o'rgatilayotgan ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarida asosiy e'tiborni talaba foydalanishi kerak bo'lgan zaruriy adabiyotlarga



to'g'ri yo'naltirishdan boshlashimiz kerak. Oliy o'quv yurtlarimizning ilg'or zamonaviy texnika bilan jihozlanganligi o'qituvchiga katta imkoniyat yaratadi. Ular bilan har qanday yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars o'tish mumkin. Masalan, Lutfiy ijodini o'rgatishga bag'ishlangan amaliy mashg'ulotning tashkiliy qismidan so'ng orqa tomonida raqamlar berkitilgan tarqatmalarni tanlash buyuriladi. Bu usul orqali talabalarning o'zaro guruhlanib qolishiga yo'l qo'yilmaydi. 3x4 texnologiyasi va uning tartib qoidalari bilan tanishtiriladi. Ushbu mashg'ulotning o'quvchi va talabalarni aniq bir muammoni

yoki yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib) fikrlab hal etish, yechimini topish, ko'p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo yuzasidan aniq tushuncha hosil qilishga, shuningdek, o'z fikrlarini isbotlay olishga o'rgatishi alohida aytib o'tiladi. Guruh talabalarining soniga qarab kichik guruhlariga bo'linadi. Berilgan mavzuga qay darajada tayyorgarlik ko'rilganligini aniqlash maqsadida A3 formatidagi qog'ozlarga quyidagi birikmalar yozilgan tarqatmalar tarqatiladi. **"Lutfiy yashagan davr bu—...", "Lutfiy Alisher Navoiy talqinida", "Lutfiy-fiyshunoslik bu—..."**.

Kichik guruhlarda material sifatida tarqatilgan tarqatma asosiy fikrning davomini faqat uchta fikr, ya'ni uchta so'z yoki so'zlar birikmasi yoki uchta gap bilan davom ettirish mumkinligi uqtiriladi. Bunga ma'lum aniq vaqt belgilanadi.

Guruh a'zolari birgalikda tarqatmada berilgan fikrni yozib davom ettiradilar. Vazifa bajarilgach, guruh a'zolari o'rinlaridan turib soat mili yo'nalishida joylarini o'zgartiradilar, ya'ni 1-guruh 2-guruhning, 2-guruh 3-guruhning, 3-guruh esa 4-guruhning o'miga o'tadi.

Yangi joyga kelgan guruh a'zolari shu yerda qoldirgan tarqatma materialdagi fikrlar bilan tanishib, unga yana yangi uchtdan o'z fikrlarini yozib qo'yadilar.

Guruh a'zolari yana yuqoridagi kabi joylarini o'zgartiradi. Shu tariqa kichik guruhlar o'z joylariga qaytib kelgunlariga qadar joylarini almashtirib, tarqatma materiallarga o'z fikrini qo'shib boradi.

O'z joyiga qaytib kelgan kichik guruhlar tarqatma materialda to'plangan barcha fikrlarni diqqat bilan o'qib, ularni umumlashtiradi. Yaxlitlangan ta'rif yoki qoidalarni guruh a'zolaridan biri taqdim qiladi. O'qituvchi kichik guruhlar tomonidan berilgan ta'riflar yoki qoidalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Mashg'ulot davomida berilgan topshiriqlar uchun belgilangan baho kriteriyalari tarqatma shaklida talabalarga tarqatiladi va doskaga yozib qo'yiladi.

1. 3x4 texnologiyasining taqdimot loyihasi uchun – 0,5 ball.

2. Keys tahliliga – 0,5 ball.

3. Lutfiy badiyatining "Baliq skeleti" yordamida yoritilgan tahlili uchun – 0,5 ball.

4. Mavzu yuzasidan baytlar tahlili uchun – 1 ball.

5. Badiiy san'atlar va ularning turlarini farqlay olishiga – 0,5 ball.

6. Test – 0,5 ball.

Quyidagi keys audio yozuv orqali o'qib eshittiriladi.

Keys

Filologiya fakultetining talabalari Kamol Xo'jandiy va Lutfiyning baytlari o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik va farqli tomonlari haqida bahslashdi. Ammo o'qituvchining qaysi shoir baytida milliy urf-odatlar bilan bog'liq o'rinlar kuchliligi va baytlarda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalarini aniqlang, degan savoliga javob berishda biroz qiyinalib qolishdi. Ularga qanday yordam bera olasiz?

Kamol Xo'jandiy:

Miyoni mo'i tu farqi

nadorad,

Ki medonad, ki on mo'yi in miyonast.

(Ya'ni: Sening beling bilan soching o'rtasida farq yo'q. Ularning qaysisi bel, qaysisi soch bilib bo'lmaydi).

Lutfiy:

Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,

O'z haddini bilib belidin o'tturur quyi.

Keys yechimi tinglangach, guruhlariga tahlil uchun baytlar tarqatiladi.

1-guruhga:

Mehrobi qoshi sori zinhor boqma, zohid,

Vayron bo'lur namozing, barcha qazo qilursen.

2-guruhga:

Zotingda haq izhori kamolot qilibtur,

O'z nuri bila suratingiz bor qilibtur.

3-guruhga:

Gul davrida ich bodanikim, oqil emastur

Har kimki, bukun dunyoida hushyor topilsa.

Keyingi topshiriqda har bir talabaga baliq skeleti tasvirlangan A3 formatidagi qog'ozlar tarqatiladi va Lutfiyning "**Ayoqingg'a tushar har lahza gisu**" g'azali videoprojektor orqali namoyish qilinadi.

Ayoqingg'a tushar har lahza gisu,

Masaldurkim: "Charog' tubi qarong'u".

Tutarmen ko'zki, ko'rsam orazingni,

Ki derlar: "Oqqan ariqqa oqar su"

Yuzingni tuttum ortuq oy-u kundin,

"Kishining ko'zidur, ori, tarozu".

Ko'zing qonimdin iymannas, ajabtur,

Ki "Qo'r qar qaydakim, qon ko'rsa hindu".

Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat,

Ki ayturlar: "Tilaganni tilogu"

Lutfiyning "Ayoqingg'a tushar har lahza gisu" g'azalida irsoli masal san'ati asosida qo'llanilgan maqollarni "Baliq skeleti" yordamida tasniflash qator muammolarini tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Baliqning yuqori suyagida kichik muammolar ifodalanadi. Pastkisida bu muammolarni tasdiqlovchi dalillar keltiriladi.

Lutfiy g'azallaridagi badiiy san'atlarni aniqlash maqsadida guruhlariga noan'anaviy testlar tarqatiladi.

Baytlar va ularda qo'llangan badiiy san'atlarni o'zaro moslashtiring

1	Gul qamaringdin o'g'urlab oldi jamol aning uchun, Shohi rabe' oni tikan dorig'a o'g'ridek osar.	A	Irsoli masal
2	Lutfiy aning javridin ko'ngli qolur bog'lama, Xotinini bog'lakim, suv borur-u tosh borur.	B	Tashxis, talmeh, mubolag'a
3	Ko'ngli qarori qolmadi, bir oqcha yuz tilar, Ul oqcha yuzki men tilaram, oqcha yuz tilar.	S	Tazod
4	Kun tushda ko'rgali seni tushti zavolg'a Oy tongg'a qoldi kecha boqib ul jamolg'a	D	Tajnis
Jami:			

Dars so'nggida guruhlarining umumiy ballari jamlanib, g'olib guruh aniqlanadi. Amaliy mashg'ulotdagi ishtirokiga qarab har bir talaba dars avvalida belgilangan ballar asosida baholanadi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilingan bunday amaliy mashg'ulotlar mavzuning aniq ketma-ketlik asosida yoritilishiga imkoniyat yaratadi. Darsda ijodkorning hayoti va ijodi, asarlarining mavzulari va badiiyati, shoir yoki yozuvchi merosining o'rganilish tarixi haqidagi talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini aniqlab olish o'qituvchida yangi-yangi usullarni qo'llashga yo'l ochibgina qolmay, eng muhim jihati har bir talabani darsda faol bo'lishga undaydi, fanga, tanlagan kasbiga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.